



GEOSTRATEGIC IMPERATIVES AND THE GENESIS OF MILITARY-POLITICAL EXPANSION OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE ZARAFSHAN VALLEY IN THE 1860s

Mahbuba Shokirovna Tilavova

*PhD candidate at the National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Russian Empire, Zarafshan Valley, Emirate of Bukhara, geostrategy, cotton crisis, Gorchakov Circular, A.I. Glukhovsky, Great Game, colonialism, military expansion.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 03.12.25

Abstract: This study analyzes the root causes, strategic objectives, and implementation mechanisms of the Russian Empire's military-political expansion into Central Asia, specifically the Zarafshan Valley, during the 1860s, based on primary sources. The article substantiates that the Empire's actions in the region were not a spontaneous process but the product of a deeply calculated geostrategic plan – a proactive policy aimed at “connecting the Orenburg and Siberian lines”, achieving “cotton independence”, and halting the northward advance of the British Empire. The author examines A.I. Glukhovsky's strategic projects, the diplomatic nature of the Gorchakov Circular, and the internal political crisis in the Emirate of Bukhara in their dialectical interconnection. The research scientifically demonstrates that the capture of the Zarafshan Valley was the decisive stage in transforming the region into a raw material appendage of the Empire.

XIX ASRNING 60-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING ZARAFSHON VODIYSIDAGI GEOSTRATEGIK IMPERATIVLARI VA HARBIY-SIYOSIY EKSPANSIYASINING GENEZISI

Mahbuba Shokirovna Tilavova

*O'zMU tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi,

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda XIX

Zarafshon vodiysi, Buxoro amirligi, geostrategiya, paxta inqirozi, Gorchakov sirkulyari, A.I.Gluxovskoy, Katta o'yin, mustamlakachilik, harbiy ekspansiya.

asrning 60-yillarida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo, xususan, Zarafshon vodiysiga nisbatan amalga oshirgan harbiy-siyosiy ekspansiyasining tub sabablari, strategik maqsadlari va amalga oshirish mexanizmlari birlamchi manbalar asosida tahlil qilingan. Maqolada imperiyaning mintaqadagi harakatlari stixiyali jarayon emas, balki chuqur o'ylangan geostrategik reja – "Orenburg va Sibir chiziqlarini tutashtirish", "paxta mustaqilligi"ga erishish va Britaniya imperiyasining shimolga siljishini to'xtatishga qaratilgan proaktiv siyosat mahsuli ekanligi asoslangan. Muallif A.I.Gluxovskoyning strategik loyihalari, Gorchakov sirkulyarining diplomatik tabiati va Buxoro amirligidagi ichki siyosiy inqirozni o'zaro dialektik bog'liqlikda o'rganadi. Tadqiqot natijasida Zarafshon vodiysining egallanishi mintaqani imperiyaning xomashyo bazasiga aylantirishdagi hal qiluvchi bosqich bo'lganligi ilmiy dalillangan.

ГЕОСТРАТЕГИЧЕСКИЕ ИМПЕРАТИВЫ И ГЕНЕЗИС ВОЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЭКСПАНСИИ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ЗАРАФШАНСКОЙ ДОЛИНЕ В 60-Е ГОДЫ XIX ВЕКА

Махбуба Шокировна Тилавова

Докторант

Национального университета Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Российская империя, Зарафшанская долина, Бухарский эмират, геоstrategiya, хлопковый кризис, циркуляр Горчакова, А.И. Глуховской, Большая игра, колониализм, военная экспансия.

Аннотация: В данном исследовании на основе первоисточников анализируются коренные причины, стратегические цели и механизмы реализации военно-политической экспансии Российской империи в Средней Азии, в частности в Зарафшанской долине, в 60-е годы XIX века. В статье обосновывается, что действия империи в регионе были не стихийным процессом, а результатом глубоко продуманного геостратегического плана – проактивной политики, направленной на «соединение Оренбургской и Сибирской линий», достижение «хлопковой независимости» и сдерживание продвижения Британской империи на север. Автор рассматривает стратегические проекты А.И.Глуховского,

дипломатическую природу циркуляра Горчакова и внутривосточный кризис в Бухарском эмирате в их диалектической взаимосвязи. В результате исследования научно доказано, что захват Зарафшанской долины стал решающим этапом в превращении региона в сырьевой придаток империи.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi jahon geosiyosatida yirik o'zgarishlar davri bo'lib, Markaziy Osiyo mintaqasi ikki buyuk imperiya – Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi global raqobat maydoniga aylandi. XIX asrning 60-yillari Rossiya imperiyasining janubiy yo'nalishdagi tashqi siyosatida burilish nuqtasi hisoblanadi. Aynan shu davrda Sankt-Peterburgdagi siyosiy va harbiy doiralar Buxoro amirligiga, xususan, mintaqaning strategik yuragi hisoblangan Zarafshon vodiysiga nisbatan nazariy rejalardan amaliy harbiy harakatlarga o'tdilar. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, zamonaviy tarixshunoslikda imperiyaning ushbu mintaqadagi harakatlarini shunchaki hududiy kengayish sifatida emas, balki iqtisodiy zarurat va geostrategik xavfsizlik masalalarining murakkab sintezi sifatida o'rganish ehtiyoji mavjud.

Zarafshon vodiysining bosib olinishi masalasi uzoq yillar davomida turlicha talqin qilib kelindi. Agar sovet davri tarixshunosligi bu jarayonni ko'proq “ingliz tahdidiga javob” va “qoloq xalqlarni sivilizatsiyaga qo'shish” niqobi ostida oqlashga uringan bo'lsa, mustaqillik yillaridagi fundamental tadqiqotlar chorizm siyosatining tub mohiyati tajovuzkor mustamlakachilik ekanligini fosh etdi. Biroq, aynan 1860-yillarda qabul qilingan harbiy-siyosiy qarorlar, xususan, Bosh shtabning maxfiy rejalari va iqtisodiy omillarning (paxta inqirozi) o'zaro bog'liqligi masalasi hamon chuqur tahlilga muhtoj.

Ushbu maqolaning maqsadi – XIX asrning 60-yillarida Rossiya imperiyasining Zarafshon vodiysidagi geostrategik maqsadlarini birlamchi manbalar asosida rekonstruksiya qilish, harbiy ekspansiyaning iqtisodiy va siyosiy sabablarini aniqlash hamda Buxoro amirligining mag'lubiyatiga olib kelgan ichki va tashqi omillarni tizimli tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Mavzu bo'yicha mavjud manbaviy baza va ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: imperiya davri manbalari, sovet tarixshunosligi va zamonaviy tadqiqotlar.

Birinchi guruhga bevosita voqea ishtirokchilari va imperiya ma'muriyati vakillarining asarlari kiradi. Bosh shtab ofitseri A.I.Gluxovskoyning ma'ruzalari [15] harbiy rejalashtirishning ichki mantig'ini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Uning Zarafshon vodiysi va Buxoroni egallash bo'yicha strategik hisob-kitoblari imperiyaning tajovuzkor niyatlarini isbotlaydi. Amerikalik diplomat Yujin Skaylarning “Turkiston” asari [2; 3; 4] esa rus ma'muriyatining

samarasizligi, iqtisodiy zararlar va mahalliy aholiga munosabatini xolis yoritgani bilan qimmatlidir. Shuningdek, D.N.Logofet [6] va N.N.Belyavskiy [7] kabi mualliflarning asarlari faktologik ma'lumotlarga boy bo'lib, imperiya protektorati ostidagi Buxoro hayotini tasvirlaydi.

Ikkinchi guruh – sovet davri olimlarining tadqiqotlari. N.A.Xalfin [23; 24; 25; 26] va P.G.Galuzo [28; 29] asarlari garchi marksistik mafkura ta'sirida yozilgan bo'lsa-da, arxiv fondlariga tayanib, Rossiya va Angliya o'rtasidagi raqobatni hamda iqtisodiy omillarni chuqur tahlil qilgan. Xususan, Xalfin Rossiya ekspansiyasini Britaniya agressiyasiga qarshi “preventiv” (oldini oluvchi) chora sifatida baholashga uringan [27].

Uchinchi guruh – O'zbekiston mustaqilligi davridagi va zamonaviy xorijiy tadqiqotlar. R.Xoliqova [1], D.Alimova [15; 16; 17; 18], D.Urakov [5; 12; 13], M.Isakova [10; 11] va A.Odilov [19; 20] kabi olimlar imperiya siyosatining mustamlakachilik mohiyatini ochib berdilar. Ularning tadqiqotlarida Rossiyaning asosiy maqsadi milliy boyliklarni talash va o'lkani xomashyo bazasiga aylantirish bo'lganligi isbotlangan. G'arb olimi Aleksandr Morrison [36; 37; 38; 39; 40; 41] esa qiyosiy tahlil usulini qo'llab, Rossiya Turkistoni va Britaniya Hindistoni boshqaruv tizimlarini solishtiradi hamda Rossiyaning moliyaviy va ma'muriy muammolariga urg'u beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, xronologik va retrospektiv metodlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Rossiya imperiyasining rasmiy hujjatlari (farmonlar, sirkulyarlar, hisobotlar), memuarlar va mahalliy muarrixlarning asarlari tanlab olindi. Ma'lumotlarning ishonchliligi ichki va tashqi manbashunoslik tanqidi orqali tekshirildi. Masalan, rasmiy “Gorchakov sirkulyari”dagi da'volar maxfiy harbiy rejalardagi (Ignatyev, Gluxovskoy) ma'lumotlar bilan solishtirilib, imperiya siyosatidagi ochiq va yashirin maqsadlar o'rtasidagi tafovut aniqlandi. Tahlil jarayonida iqtisodiy determinizm (paxta omili) va geosiyosiy realizm (Katta o'yin) yondashuvlari uyg'unlashtirildi.

Natijalar va muhokamalar. XIX asrning 60-yillarida Rossiyaning O'rta Osiyoga, xususan Zarafshon vodiysiga intilishini belgilab bergan eng kuchli omil iqtisodiy manfaatlar edi. 1861–1865-yillardagi Amerika fuqarolar urushi jahon bozorida “paxta inqirozi”ni keltirib chiqardi. Bu holat Rossiya to'qimachilik sanoatini xomashyo inqirozi yoqasiga olib keldi va imperiya hukumatini muqobil manbalar izlashga majbur qildi [1; 221-b.]. Moliya vazirligi va harbiylar, jumladan general-leytenant Terentyev, O'rta Osiyoni nafaqat katta iste'mol bozori, balki eng arzon va ishonchli xomashyo manbai sifatida baholadilar.

Arxiv hujjatlari va rasmiy hisobotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqani xomashyo bazasiga aylantirish vazifasi aniq belgilangan siyosiy yo'nalish edi [5; 38-b.]. Moliya vazirligi kanselyariyasi direktori Y.A.Gagemeyster 1862-yildayoq imperiya chegaralarini kengaytirish va

Amudaryoda mustahkam oʻrnashishni tavsiya qilgan edi. P.G.Galuzoning taʼkidlashicha, bu bosqin ortida savdo va sanoat kapitalining bevosita manfaatlari turgan boʻlib, ular hukumatga bosim oʻtkazganlar [28; 5-s.]. Natijada, Zarafshon vodiysi va Buxoro amirligi hududlari potentsial paxta plantatsiyalari sifatida strategik ahamiyat kasb etdi.

Iqtisodiy omillar bilan bir qatorda, Buyuk Britaniya bilan global raqobat – “Katta oʻyin” hal qiluvchi rol oʻynadi. Qrim urushidagi (1853–1856) magʻlubiyatdan soʻng, Rossiya xalqaro maydondagi obroʻsini tiklash va Britaniyaga bosim oʻtkazish uchun Osiyo ichkarisiga intildi. Lord Kerzon taʼbiri bilan aytganda, bu “Osiyodagi aʼzoni jarohatlash orqali Yevropadagi tanani falaj qilish” strategiyasi edi [39; p. 34].

Rossiya Harbiy vazirligi, xususan vazir D.A.Milyutin, Orenburg va Sibir harbiy istehkom chiziqlarini tutashtirishni strategik vazifa deb bildi. Bu reja 1864-yilda polkovniklar Chernyayev va Vervovkinning qoʻshma operatsiyasi orqali amalga oshirilib, Turkiston va Chimkent shaharlarining olinishi bilan yakunlandi [2; 49-b.]. Bu harakatlar yagona Turkiston platsdarmini yaratib berdi va keyingi nishon sifatida Zarafshon vodiysini kun tartibiga qoʻydi.

Rossiya Bosh shtabi podpolkovnigi A.I.Gluxovskoy [30] tomonidan tayyorlangan tahliliy maʼruzalarda Buxoro amirligini boʻysundirishning harbiy algoritmi ishlab chiqilgan edi. Gluxovskoyning fikricha, Buxoro amirligi butun Oʻrta Osiyoning “kaliti” boʻlib, uning taqdiri Zarafshon vodiysida hal boʻlardi [31; c. 11]. Uning strategik tahliliga koʻra, Jizzax va Samarqand oraligʻidagi Ilonoʻtdi darasi amirlik mudofaasining eng nozik nuqtasi edi. Bu darani egallash orqali rus qoʻshinlari nafaqat Samarqandni, balki Buxoro shahrini suv bilan taʼminlovchi Zarafshon daryosining yuqori oqimini nazorat qilish imkoniga ega boʻlardi [33; c. 12]. Suv manbalarini nazorat qilish orqali amirni har qanday shartga koʻndirish mumkinligi rejaning asosini tashkil etgan.

1865-yilda Buxoro amiri Muzaffarning Toshkentga daʼvogarlik qilishi va u yerda oʻz taʼsirini oʻrnatishga urinishi general M.G.Chernyayevga hujum uchun rasmiy bahona boʻldi [6; c. 25]. Amir Muzaffar oʻz raqibining harbiy qudratini toʻgʻri baholay olmadi. Ahmad Donishning yozishicha, amir Toshkent himoyachilariga yordam berish oʻrniga, Qoʻqonda Xudoyorxonni taxtga qaytarish bilan ovora boʻlib, kuchlarni sohib yubordi [34; 37-b.]. Bu strategik xatolik rus qoʻshinlariga Toshkentni (1865), soʻngra Jizzax, Oʻratepa va Yangiqoʻrgʻonni (1866) bosqichma-bosqich egallash imkonini berdi.

1868-yilgi yurishlar natijasida Samarqandning egallanishi Buxoro amirligini Rossiyaga qaram davlatga aylantirdi. General K.P. fon Kaufman tomonidan imzolangan sulh shartnomasiga koʻra, Zarafshon vodiysi Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi va bu hududda alohida Zarafshon okrugi tuzildi. Bu esa Gluxovskoy rejasining toʻliq amalga oshganligini koʻrsatadi.

Rossiya Tashqi ishlar vaziri A.M.Gorchakovning 1864-yil 21-noyabrda mashhur sirkulyarida imperiyaning harakatlari “xavfsizlikni ta’minlash” va “madaniyat tarqatish” zarurati bilan izohlangan edi [22; c. 17]. Gorchakov rus qo’shinlarining oldinga siljishini “sivilizatsiyalashgan davlatning “yovvoyilar” bilan chegaradosh bo’lishidagi majburiyat” deb atagan. Biroq, tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, bu hujjat xalqaro hamjamiyatni, ayniqsa Britaniyani tinchlantirish uchun mo’ljallangan diplomatik niqob edi.

Aslida, N.P.Ignatyevning [14] 1858-yilgi missiyasi va keyingi harbiy harakatlar imperiya maqsadi tinchlik o’rnatish emas, balki agressiv iqtisodiy va harbiy nazorat ekanligini isbotlaydi. Yujin Skaylarning ma’lumotlariga ko’ra, 1868–1872-yillarda Turkiston o’lkasi Rossiya xazinasiga 19 million rubl zarar keltirgan [2; 16-b.]. Bu fakt shundan dalolat beradiki, dastlabki bosqichda imperiya uchun iqtisodiy foydadan ko’ra harbiy-siyosiy maqsadlar (geostrategik platsdarm yaratish) ustuvor bo’lgan. Ammo uzoq muddatli istiqbolda bu xarajatlar paxta va boshqa resurslar hisobiga qoplanishi rejalashtirilgan edi.

Buxoro amirligining mag’lubiyati faqat texnik qoloqlik bilan emas, balki davlat boshqaruvi tizimining inqirozi bilan ham bog’liq edi. Ahmad Donish o’z asarida amir va uning a’yonlarini qattiq tanqid qilib, ular Rossiyaning an’anaviy ko’chmanchi raqib sifatida ko’rib, xato xulosaga kelganliklarini ta’kidlaydi [35; 37-b.]. Amir Muzaffarning Qo’qon va Xiva xonliklari bilan birlashish o’rniga, ular bilan nizolashishi Rossiyaning “bo’lib tashla va hukmronlik qil” siyosati uchun ayni muddao bo’ldi. Bu strategik ko’rlik nafaqat Zarafshon vodiysining boy berilishiga, balki Buxoro davlatchiligining mustaqilligini yo’qotishiga olib keldi.

Rossiya imperiyasi Zarafshon vodiysida to’g’ridan-to’g’ri harbiy boshqaruvni joriy etdi, Buxoroning qolgan qismida esa amir hokimiyatini saqlab qolgan holda protektorat tizimini o’rnatdi. Bu qarorning sababi, A.Morrison ta’kidlaganidek, moliyaviy va ma’muriy resurslarning yetishmasligi edi [41; p. 32]. To’liq anneksiya qilish imperiya uchun qimmatga tushardi, shu bois Rossiya amir qo’li bilan aholini boshqarish va soliq yig’ishni ma’qul ko’rdi. Bu yondashuv imperiyaning uzoqni ko’zlagan mustamlakachilik siyosatidan darak beradi.

Xulosa. XIX asrning 60-yillarida Rossiya imperiyasining Zarafshon vodiysidagi harbiy-siyosiy faoliyati va geostrategik rejalari tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Birinchidan, Rossiyaning mintaqaga yurishi yagona sabab (faqat paxta yoki faqat inglizlar) bilan emas, balki geostrategik xavfsizlik va iqtisodiy ehtiyojlarning murakkab dialektik birligi bilan harakatga keltirilgan. Paxta inqirozi iqtisodiy turtki bergan bo’lsa, “Katta o’yin” harbiy tezlikni belgiladi. Ikkinchidan, Zarafshon vodiysining egallanishi tasodifiy voqea emas, balki A.I.Gluxovskoy va Bosh shtab tomonidan Buxoro amirligini bo’ysundirishning eng samarali usuli – “suv yo’lini bo’g’ish” strategiyasi sifatida oldindan ishlab chiqilgan reja edi.

Uchinchidan, Gorchakov sirkulyari va “sivilizatorlik” shiorlari imperiyaning tajovuzkor mohiyatini yashirishga xizmat qilgan siyosiy vosita bo‘lib, amalda hududiy talonchilik va repressiv boshqaruv joriy etildi. To‘rtinchidan, XIX asrning 60-yillaridagi voqealar O‘rta Osiyo xalqlari taqdirida fojiali burilish yasadi. Buxoro amirligining mag‘lubiyati va Zarafshon vodiysining ajratib olinishi mintaqaning suveren rivojlanish yo‘lini to‘siq qo‘ydi va uni global kapitalistik bozor tizimiga xomashyo bazasi sifatida majburan qo‘shilishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Холиқова Р.Э. Россия – Бухоро: тарих чоррахасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: O‘qituvchi, 2005.
2. Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари / Таржимон З.А.Саидбобоев. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. 16-б.
3. Скайлер Ю. Ўша асар. 16-б.
4. Скайлер Ю. Ўша асар. 49-б.
5. Ураков Д.Ж. Туркистонда Россия империяси маъмуриятининг расмий ҳисоботлари – тарихий манба сифатида (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2006.
6. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. I. – Санкт-Петербург, 1911.
7. Белявский Н.Н. Материалы по Туркестану. – Санкт-Петербург, 1885.
8. Справочная книжка Самаркандской области на 1898 г. Выпуск VI. – Самарканд, 1899.
9. Убайдуллаев У.А. К характеристике колонизаторской политики царской России в Туркестане. Общественные науки в Узбекистане, № 3–4. 1999.
10. Исакова М. Россия империясининг Бухоро амирлиги ҳудудларини босиб олишига оид айрим мулоҳазалар // “Доно Зиёева номидаги “Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари” тўплами. – Тошкент: Фан, 2022. 31-б.
11. Исакова М. Ўша мақола. 32-б.
12. Ураков Д.Ж. Туркистон генерал-губернаторлигининг қўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. – Тошкент, 2021. 13-б.
13. Ураков Д.Ж. Ўша асар. 74-б.
14. Izoh: Nikolay Pavlovich Ignatyev (1832–1908) – graf, rus davlat arbobi, diplomat va infanteriya generali. 1858-yilda Xiva va Buxoroga diplomatik missiya bilan yuborilgan. Uning asosiy vazifasi mintaqadagi siyosiy vaziyatni o‘rganish, Britaniya ta’sirini kamaytirish va Rossiya uchun savdo imtiyozlariga erishish bo‘lgan. Uning sayohati natijasida to‘plangan

ma'lumotlar Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olish rejalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan. Keyinchalik Osiyo departamenti direktori va Rossiyaning Turkiyadagi elchisi kabi yuqori lavozimlarda ishlagan.

15. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865 – 1990 йиллар) / Лойиха раҳбари ва масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000. 14-б.

16. Ўша асар. 8-б.

17. Ўша асар. 9-б.

18. Ўша асар. 10-б.

19. Одилов А.А. Бухоро амирлигида миллий озодлик ҳаракатлари тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2003. 5–6-б.

20. Одилов А.А. Ўша асар. 56-б.

21. Мусаев Н. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2008.

22. Izoh: Gorchakov sirkulyari – Rossiya Tashqi ishlar vaziri knyaz Aleksandr Gorchakov tomonidan 1864-yil 21-noyabrda (eski sana) ishlab chiqilgan va Yevropadagi Rossiya elchilariga yuborilgan diplomatik nota. Unda Rossiyaning O'rta Osiyodagi harakatlari majburiy va mudofaa xarakteriga ega ekanligi, imperiyaning maqsadi "varvar" xalqlardan madaniy hududlarni himoya qilish uchun barqaror chegaralarni o'rnatish ekanligi da'vo qilingan. Bu hujjat Rossiyaning bosqinchilik siyosatini oqlash uchun mo'ljallangan siyosiy-mafkuraviy vosita edi..

23. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60–90-е годы XIX в.). – Москва: Наука, 1965. С. 171.

24. Халфин Н.А. Ўша асар. С. 17.

25. Халфин Н.А. Ўша асар. С. 111.

26. Халфин Н.А. Ўша асар. С. 136.

27. Izoh: N.A.Xalfin o'z asarida podsho Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi sabablarini tahlil qilar ekan, bu jarayonni faqatgina harbiy istilo sifatida emas, balki imperiyaning iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqadi. Muallif Rossiyaning maqsadi Hindistonni bosib olish emas, balki Britaniya imperiyasining O'rta Osiyoda mustahkamlanib olishiga yo'l qo'ymaslik va mintaqani o'zining xomashyo bazasi hamda savdo bozoriga aylantirish bo'lganini arxiv hujjatlari asosida isbotlashga harakat qiladi..

28. Галузо П.Г. Туркестан – колония (очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 года). – Москва, 1929. С. 5.
29. Галузо П.Г. Ўша асар. С. 6.
30. Izoh: Aleksandr Ivanovich Glukhovskoy (1838–1912) – Rossiya imperiyasi Bosh shtabining ofitseri, keyinchalik general-leytenant. U Oʻrta Osiyo boʻyicha mutaxassislardan biri boʻlib, mintaqaning harbiy-strategik, geografik va iqtisodiy jihatlarini chuqur oʻrgangan. Mazkur “Maʼruza” (“Записка”) 1866-yil atrofida, Rossiyaning Buxoro amirligiga qarshi hal qiluvchi harbiy harakatlari arafasida tayyorlangan. Bu hujjat tarixiy yilnoma emas, balki imperiya hukumatiga Buxoroni boʻysundirish zarurati va uning eng samarali yoʻllari haqida taqdim etilgan harbiy-strategik tahlil va tavsiyanomadir. Shuning uchun undagi maʼlumotlar Rossiyaning Oʻrta Osiyodagi asl maqsadlarini tushunish uchun qimmatlidir.
31. Глуховской А.И. Записка о значении Бухарского ханства для России и о необходимости принятия решительных мер для прочного водворения нашего влияния в Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1867. С. 11.
32. Глуховской А.И. Ўша асар. С. 11.
33. Глуховской А.И. Ўша асар. С. 12.
34. Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи / Таржима ва изоҳлар муаллифи Қ.Ўўлдошев. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014. 37-б.
35. Аҳмад Дониш. Ўша асар. 37-б.
36. Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand, 1868–1910. A Comparison with British India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. P. 30.
37. Morrison A.S. Ibid. Pp. 33–34.
38. Morrison A.S. Ibid. P. 34.
39. Morrison A.S. Ibid. P. 34.
40. Morrison A.S. Ibid. P. 31.
41. Morrison A.S. Ibid. P. 32.